AHOLI XONADONLARINI KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORLASH

Ilhomjon Hamraboev

Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi xonadonlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlashning ahamiyati, issiqlikni saqlash, gaz va elektr energiyasidan xavfsiz foydalanish, isitish tizimlarini texnik ko'rikdan o'tkazish hamda yong'in va is gazidan zaharlanishning oldini olish masalalari yoritilgan. Shuningdek, sovuq mavsumda aholi xanodonlarida xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kuz-qish mavsumi, aholi xonadonlari, isitish tizimi, tabiiy gaz, elektr energiyasi, is gazi, yong'in xavfsizligi, profilaktika, xavfsizlik.

Kirish

Noyabr oyidan to bahor fasli kirib kelguniga qadar yurtimizda kuz-qish mavsumi boshlanishi bilan aholi xonadonlarida isitish tizimlaridan foydalanish keskin ortadi. Bu davrda tabiiy gaz, elektr energiyasiga bo'lgan talab aholi tomonidan ortishi, xonadon egalari boshqa yoqilg'i turlaridan foydalanishda xavfsizlik talablariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xonadonlarni qish mavsumiga tayyorlash faqat isitish qurilmalarini ishga tushirish bilan cheklanmasligi kerak. Uy-joylarning tom qismi, eshik va derazalar, elektr tarmoqlari, gaz jihozlari, mo'rilar va shamollatish tizimlarining holati ham oldindan tekshirilishi zarur. Xonadonlarni kuz-qish mavsumiga tayyorlashning asosiy yo'nalishlari

1. Isitish tizimlarini tekshirish

Qish mavsumi boshlanishidan oldin xonadondagi isitish qurilmalari texnik holatini tekshirish lozim. Gaz qozonlari, pechlar, radiatorlar va boshqa isitish vositalari soz holda bo‘lishi kerak.

Isitish qurilmalarini o‘zboshimchalik bilan ta’mirlash yoki ularning konstruksiyasiga o‘zgartish kiritish xavfli. Zarur hollarda malakali mutaxassis xizmatidan foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Gaz jihozlaridan xavfsiz foydalanish

Tabiiy gazdan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga qat’iy amal qilish zarur. Gaz hidi sezilganda elektr jihozlarini yoqish yoki o‘chirish, ochiq olovdan foydalanish mumkin emas. Bunday holatda xona deraza va eshiklarini ochib, gaz ta’minotini xavfsiz tarzda to‘xtatish va tegishli avariya xizmatlariga xabar berish kerak. Ko‘p qavatli uy xonadon egalari ovqat tayyorlashda gaz plitalarida suyuiltirgan gaz ballonlardan foydalanish mumkun emas.

Gaz plitasidan xonani isitish maqsadida foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3. Mo‘ri va ventilyatsiya tizimlarini tekshirish

Qish mavsumida is gazidan zaharlanish xavfi ortishi mumkin. Shu sababli mo‘ri va ventilyatsiya kanallarining ochiqligi hamda sozligi muntazam tekshirilishi kerak. Mo‘rilarni tegishli mutaxassislar tomonidan xa yili tozalatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Isitish pechlari yoki qurilmalari ishlayotganda xonada havo almashinuvi ta’minlanishi muhim. Ventilyatsiya kanallarini berkitish yoki ularni boshqa maqsadlarda ishlatish xavfli.

4. Elektr tarmoqlarini tayyorlash

Sovuq mavsumda elektr isitish qurilmalaridan foydalanish ko‘payishi natijasida elektr tarmoqlariga tushadigan yuklama ortadi.

Shuning uchun elektr simlari, rozetkalar, avtomatik himoya qurilmalari va uzaytirgichlarning holatini tekshirish zarur. Bir rozetkaga bir nechta yuqori quvvatli elektr jihozlarini ulashdan saqlanish kerak.

Eskirgan yoki shikastlangan elektr simlaridan foydalanish yong‘in kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

5. Uy-joyning issiqlikni saqlash xususiyatini yaxshilash

Xonadonni qishga tayyorlashda issiqlikni tejashga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Deraza va eshiklardagi tirqishlarni bartaraf etish, tom va devorlarning issiqlik izolyatsiyasini yaxshilash xonadagi issiqlikni saqlashga yordam beradi.

Bu choralar nafaqat xonadonda qulay haroratni saqlash, balki energiya resurslaridan tejamkor foydalanish imkonini ham beradi.

Yong‘in xavfsizligi

Kuz-qish mavsumida yong‘inlarning oldini olish muhim vazifalardan biridir. Xonadonlarda yonuvchan materiallarni isitish qurilmalari yaqinida saqlamaslik, ochiq olovdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish va yuvilgan kiyim keakchlar va boshqa gazlamlarni ochiq olov ustida va pechkalar ustida kuritmaslik va bolalarni nazoratsiz qoldirmaslik zarur.

Har bir oila xonadonda yong‘in sodir bo‘lganda qanday harakat qilishni bilishi kerak. Yong‘in aniqlanganida avvalo odamlarni xavfsiz joyga olib chiqish va Favqulodda vaziyatlar bo‘limlari navbatchisiga qo‘ng‘iroq xabar berish lozim. O‘ziga qarashli, turar joylarni va boshqa binolar hamda imoratlarni belgilangan tartibda yong‘in nazoratini amalga oshirish maqsadida ko‘zdan kechirishi va tekshirishi uchun yong‘in nazorati organlarining mansabdor shaxslariga imkoniyat berishi shart.

Aholining mas’uliyati

Xonadonlarni kuz-qish mavsumiga tayyorlashda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda har bir fuqaroning shaxsiy mas’uliyati ham katta ahamiyatga ega.

Aholi:

– gaz va elektr jihozlaridan xavfsiz foydalanishi;

– isitish tizimlarini mavsum oldidan tekshirishi;

– mo‘ri va ventilyatsiya kanallarini nazorat qilishi;

– yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishi;

– nosoz elektr va gaz jihozlaridan foydalanmasligi;

– oila a’zolari, ayniqsa bolalarga xavfsizlik qoidalarini tushuntirishi lozim.

Xulosa

Aholi xonadonlarini kuz-qish mavsumiga o‘z vaqtida va sifatli tayyorlash inson hayoti va salomatligini muhofaza qilish, yong‘in hamda is gazidan zaharlanish holatlarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Xonadonlarni mavsumga tayyorlash kompleks yondashuvni talab qiladi. Isitish tizimlari, gaz va elektr jihozlari, mo‘ri-ventilyatsiya kanallari, tom, deraza va eshiklar holatini oldindan tekshirish zarur.

Eng muhimi, aholi o‘rtasida profilaktik-tushuntirish ishlarini kuchaytirish, xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va har bir oilada kuz-qish mavsumida xavfsiz harakat qilish ko‘nikmalarini oshirishdir. Bu choralar sovuq mavsumni xavfsiz va barqaror o‘tkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasini ta’minlash. Qoidalari. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 7-iyuldagi 370-son qaroriga 1-ilova.
2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida 2009 yil 1-oktabr.
3. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallar.

4. Gaz va elektr energiyasidan xavfsiz foydalanish qoidalari.